



**THE COVERAGE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF CENTRAL
ASIAN SCHOLARS IN IBN AL-NADIM'S "KITAB AL-FIHRIST AL-
‘ULUM"**

Boboyeva Huriyatkhon Gulshan qizi

**Faculty of History, FarSU, History (by countries and directions), student of
group 22.75**

Annotation: This article analyzes Ibn al-Nadim's "Kitab al-Fihrist", one of the important bio-bibliographic sources created in the 10th-11th centuries. The work examines how the scientific heritage of Central Asian scholars, in particular Abu Nasr al-Farabi, Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi, Ahmad al-Farghani, Imam al-Bukhari and Abu Isa at-Termizi, is covered. It also reveals the importance of "Al-Fihrist" in studying the history of science, the scientific environment, and bio-bibliographic traditions.

Keywords: Ibn an-Nadim, Al-Fihrist, bio-bibliography, Central Asian scholars, al-Farabi, al-Khwarizmi, al-Farghani, Imam Bukhari, at-Tirmidhi, source studies.

**IBN AN-NADIMNING «KITOB AL-FIHRIST AL-‘ULUM» ASARIDA
MARKAZIY OSIYO ALLOMALARI ILMIY MEROSINING YORITILISHI**

Boboyeva Huriyatxon Gulshan qizi

FarDU Tarix Fakulteti Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar

bo‘yicha) yo‘nalishi 22.75-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada X–XI asrlarda yaratilgan muhim bio-bibliografik manbalardan biri bo‘lgan Ibn an-Nadimning “Kitob al-Fihrist” asari tahlil qilinadi. Asarda Markaziy Osiyo allomalari, xususan Abu Nasr al-Farobiy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom al-Buxoriy va Abu Iso at-Termiziy kabi olimlarning ilmiy merosi qanday yoritilgani ko‘rib chiqiladi.



Shuningdek, “Al-Fihrist”ning fan tarixini, ilmiy muhitni va bio-bibliografik an’analarni o’rganishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: Ibn an-Nadim, Al-Fihrist, bio-bibliografiya, Markaziy Osiyo allomalari, al-Forobiy, al-Xorazmiy, al-Fargʻoniy, Imom Buxoriy, at-Termiziy, manbashunoslik.

X–XI asrlar musulmon Sharqi ilm-fani taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu davrda yaratilgan bio-bibliografik asarlar fan tarixini o’rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ana shunday asarlardan biri Abu al-Faraj Muhammad ibn Is’hoq ibn an-Nadim tomonidan yozilgan “Kitob al-Fihrist” hisoblanadi. Mazkur asar o’rta asr Sharqidagi ilm-fan, adabiyot, falsafa va diniy ta’limotlar haqidagi ensiklopedik ma’lumotlarni o’zida mujassam etgan.

“Al-Fihrist” asari nafaqat kitoblar roʻyxati, balki mualliflar, ularning ilmiy faoliyati hamda ilmiy muhit haqida ma’lumot beruvchi muhim bio-bibliografik manbadir. Asarda Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan koʻplab allomalar va ularning ilmiy merosi haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Shu jihatdan mazkur asar Markaziy Osiyo ilmiy merosini tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Toʻliq ismi Abu al-Faraj Muhammad ibn Is’hoq an-Nadim ibn Abi Ya’qub Is’hoq al-Varroq boʻlgan, taxminan 932–995-yillarda yashagan bagʻdodlik tarixchi. Olim ismidagi al-Varroq soʻzi uni kitob savdosi bilan shugʻullanganligidan, yani kitob sotuvchisi boʻlganligidan dalolat beradi. An-Nadim esa uni Bagʻdod shahri hokimining maslahatchisi, yani nadimi boʻlganligini anglatadi. Olim toʻgʻrisidagi ma’lumotlar uning shaxsiy asari orqali yetib kelgan. Keltirilishicha, olti yoshidan boshlab u madrasada oʻqigan va islomshunoslik, tarix, geografiya, tabiiy ilmlar, grammatika, ritorika va qurʻonshunoslik boʻyicha har tomonlama ta’lim olgan¹. Unga ta’lim bergan olimlar qatoriga Ibrohim al-Abyariy, Al-Hasan ibn Savvar,

¹Ibn an-Nadim. Kitāb al-Fihrist. / vorbereiten der Veröffentlichung G.Flügel. – Zwei bände. – Leipzig: Verlag von F.C.W.Vogel, 1872. – S. 4–5.



Yunus al-Qassob, Abu al-Hasan Muhammad ibn Yusuf al-Naqitlarni kiritish mumkin. Ta'lim bilan bir vaqtda u otasining kasbi – kitob savdosi bilan shug'ullangan. Tarixiy adabiyotlarda Ibn an-Nadim nomi bilan tanilgan. Bobosining ismi Is'hoq ibn Yaqub al-Varroq bo'lgan.

Muhammad ibn Is'hoq an-Nadim Bag'dodda yaxshi ta'lim olgan, kitobchilik va nadimlik qilgan, Bag'dodning ilm va madaniy hayotining so'ngi porloq davrini ko'rgan. O'sha davrdagi buyuk olimlar va adiblar bilan tanishgan, ko'p miqdordagi kitoblarni o'qigan va bu kitoblarning nusxalarini jamlab borgan. Uning o'zi ham yetuk olim bo'lib, o'z davrining buyuk olimlari ijodini o'rgangan, kitoblar yozgan. Bag'doddan tashqari Iroqning shimolidagi Mosul, Basra, Kufa va Xalab kabi shaharlarida ham bo'lgan. Bu yerlarda ham ma'lum muddat ijod qilgan.

Ibn an-Nadimning tug'ilgan va vafot etgan yili haqida aniq ma'lumot yo'q. Adabiyotlarda uni uzoq hayot kechirgani taxmin qilinadi. Abbos Qummiy, "Hadiyatul-Ahbob" nomli asarida uni hijriy 297/ milodiy 909-yilda tug'ilganini qayd etgan². Eymen Fuad Sayyid ham bu borada hijriy 315/ milodiy 927 yoki 320/932-yilda tug'ilgan bo'lishi mumkinligini aytadi. Hijriy 340 / milodiy 951-yilda xorijiy mazhabi ulamolaridan Abu Bakr al-Berdiy bilan ko'rishib, undan asarlarining ro'yxatini oladi. Ushbu qaydlardan uning bu yillarda o'z kitobi uchun manba to'plagani, eng kamida 30 yoshlarda bo'lganini taxmin qilish mumkin. Shunga asosan hijriy IV/ milodiy X asr boshlarida tug'ilgan bo'lishi kerak. Al-Fihristni hijriy 377/ milodiy 987-yilda yozib tugatganligi asarning bir qancha joyida keltirib o'tilgan. Bu yilda asar yakuniy shaklga keltirilgan. Bundan olim shundan keyin uzoq yashamagan, degan xulosaga kelish mumkin. Manbalarda olimning o'lim sanasi haqida ham turli qarashlar mavjud bo'lib, 20-avgust 380/ 13-noyabr 990, 20-avgust 385/ 19-sentabr 995-yillar ko'rsatiladi. Al-Merzuban, Ibn an-Nadimni hijriy 377-yilda sog' ekanligini aytib, uni 384-yilda vafot etganini qayd

²Rashed R. Encyclopedia of the History of Arabic Science. – London: Routledge, 1996. – P. 124–123.



qiladi³. Bu qisqacha olimning hayot faoliyatiga oid ma'lumot edi. Endi uning eng mashhur va muhim asari "Al-Fihrist" haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

X–XI asrlarda yaratilgan bio-bibliografik asarlar ichida Ibn an-Nadim tomonidan yozilgan «Kitob al-Fihrist» asari fan tarixini, ayniqsa Markaziy Osiyo allomalari ilmiy merosini o'rganishda alohida o'rin tutadi. Ushbu asar o'z davrida mavjud bo'lgan ilmiy bilimlarni tizimlashtirishga qaratilgan bo'lib, unda turli fan sohalari, mualliflar va ularning asarlari haqida batafsil ma'lumotlar jamlangan. «Al-Fihrist» o'rta asrlar islom ilm-fanining ensiklopedik manbalaridan biri sifatida baholanadi⁴. Ibn an-Nadim Bag'dod ilmiy muhitida faoliyat yuritgan bo'lib, o'z asarini yozishda bevosita ilm ahllari bilan muloqotda bo'lgan, kutubxonalar va kitob bozorlaridagi ma'lumotlardan keng foydalangan. Shu sababli «Al-Fihrist» faqatgina nazariy manba emas, balki muallifning shaxsiy kuzatuvlari va amaliy tajribasiga tayangan ishonchli bio-bibliografik asar hisoblanadi. Asarning asosiy maqsadi yozma merosni saqlab qolish, fanlarni tartibga solish va ilm ahlini kelajak avlodlarga tanitishdan iborat bo'lgan.

987-yilda yozib tugallangan "al-Fihrist"ning ikki qo'lyozma nusxasi mavjud: ulardan to'liqroq nashr o'nta kitobdan iborat bo'lib, birinchi oltitasi islomiy mavzulardagi kitoblarning batafsil bibliografiyasini tashkil etadi. Asarning bu nusxasi quyidagi qismlardan iborat:

1-bob – Qur'on:

- 1.1. Til va xattotlik
- 1.2. Tavrot, Xushxabar
- 1.3. Qur'on

2-bob – Tilshunoslik:

- 2.1. al-Basra tilshunoslari

³Yuqorida asar, 125-bet.

⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Al-Fihrist> – internet resurs.



2.2. al-Kufa tilshunoslari

2.3. Ikkala maktabning tilshunoslari

3-bob – Hadis:

3.1. Tarixchilar va genealoglar

3.2. Hukumatning rasmiy mualliflari

3.3. Mahkama hamrohlari, qo' shiqchilar va hazil-mutoyiba

4-bob – She'riyat:

4.1. Islomdan oldingi va Umaviylar davri shoirlari

4.2. Abbosiylar davri shoirlari

5-bob – Ilohiyot vakillari:

5.1. Musulmon mazhablari; Mu'tazila

5.2. Shia, Imomiya va Zaydiya

5.3. Mujbira (Deterministlar) va al-hashaviyya (An'anachilar)

5.4. Xavorij

5.5. Asketlar

6-bob – Qonun:

6.1. Molik ibn Anas

6.2. Abu Hanifa

6.3. Shofiiy

6.4. Dovud ibn Ali

6.5. Huquqiy oqimlar (Shia va Ismoiliyya)

6.6. Hadis ulamolari

6.7. At-Tabariy

6.8. Shurot faqihi

7-bob – Falsafa va antik fanlar:



7.1. Falsafa: yunon faylasuflari, al-Kindi va boshqalar

7.2. Matematika va astronomiya

7.3. Tibbiyot: yunon va islom

8-bob – Adabiyot:

8.1. Hikoyachilar va afsonalar

8.2. Sehrgarlik va sehrgarlar

8.3. Ertaklar va boshqa mavzular

9-bob – Diniy ta’limotlar:

9.1. Sobiylar (manixiylar, daysoniylar, xurramiylar va boshqa oqimlar)

9.2. Hindlar, buddistlar va xitoylarning ta’limotlari

10-bob – Alkimyo.

Al-Nadimning ta’kidlashicha, u ro‘yxatga olingan har bir asarni ko‘rgan yoki ishonchli manbalarga tayangan⁵.

Yuqorida qayd etganimizdek, «Kitob al-Fihrist» asari mazmunan o‘n maqoladan iborat bo‘lib, har bir maqolada muayyan fan sohasi yoki ijtimoiy-ilmiy qatlam vakillari haqida ma’lumotlar berilgan. Asarda Qur’on ilmlari, hadis, fiqh, tilshunoslik, adabiyot, falsafa, mantiq, matematika, astronomiya, tibbiyot va kimyo kabi fan sohalari alohida bo‘limlarda yoritilgan. Bu holat Ibn an-Nadimning fanlarni tizimli va mantiqiy asosda tasniflaganini ko‘rsatadi⁶. Markaziy Osiyo allomalari ilmiy merosini o‘rganishda «Al-Fihrist»ning ahamiyati shundaki, unda ushbu mintaqada yetishib chiqqan ko‘plab olimlar va ularning asarlari haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Masalan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr al-Forobiy kabi allomalarning ilmiy faoliyati va asarlari asarda alohida qayd etilgan. Al-Forobiy falsafa, mantiq, siyosatshunoslik va musiqiy

⁵Ibn an-Nadim. Kitāb al-Fihrist. / vorbereiten der Veröffentlichung G.Flügel. – Zwei bände. – Leipzig: Verlag von F.C.W.Vogel, 1872. – S. 5.

⁶Tursunov M. Markaziy Osiyo va Bag‘dod ilmiy aloqalari. – Тошкент: Fan, 2017. – 150 b. – monografiya.



nazariya bo'yicha yetuk mutafakkir sifatida tanilgan. U "Ikkinchi Ustoz" deb ataladi (Aristoteldan keyingi eng nufuzli falsafa olimi sifatida). Uning asarlari turli ilmiy yo'nalishlarda, jumladan, falsafa, mantiq, siyosat, etika va siyosiy nazariya sohalarida jamlangan. Ibn an-Nadim al-Forobiy asarlarining ayrimlarini sanab o'tadi va ularning ilm-fan tarixidagi ahamiyatini yoritadi. Ibn an-Nadim Kitob al-Fihrist asarida Abu Nasr al-Forobiyni Sharqning buyuk mutafakkiri va mantiq ilmining yetuk vakili sifatida ta'riflaydi. Muallif allomaning ilmiy faoliyati, uning Aristotel asarlariga yozgan sharhlari hamda mantiq ilmidagi o'rnini alohida qayd etadi.

Ibn an-Nadim o'zining Al-Fihrist asarida Abu Nasr al-Forobiy haqida quyidagi ma'lumotni keltiradi:

أَبُو نَصْرِ مُحَمَّدُ بْنُ مُحَمَّدِ بْنِ مُحَمَّدِ بْنِ طَرْحَانَ، أَصْلُهُ مِنَ الْفَارِيَّابِ مِنْ بِلَادِ خُرَّاسَانَ، مِنَ الْمُتَقَدِّمِينَ فِي صِنَاعَةِ الْمُنْطِقِ وَالْعُلُومِ الْقَدِيمَةِ، وَلَهُ مِنَ الْكُتُبِ: كِتَابُ مَرَاتِبِ الْعُلُومِ ١٠، وَتَفْسِيرُ قِطْعَةٍ مِنْ كِتَابِ الْأَخْلَاقِ لِأَرْسَطَاطَالَيْسَ، وَفَسَّرَ التَّرْبَائِيَّ مِنْ كُتُبِ أَرْسَطَاطَالَيْسَ مِمَّا يُوجَدُ وَيَتَدَاوَلُهُ النَّاسُ، كِتَابُ الْقِيَاسِ (قَاطِئُغُورِيَّاسَ)، كِتَابُ الْبُرْهَانِ (أَنَالُوطِيْقَا الثَّانِي)، كِتَابُ الْخُطَابَةِ (أَرْوْطُورِيْقَا)، كِتَابُ الْمُعَالِيْنَ (سُوفِسْطِيْقَا) عَلَى جِهَةِ الْجَوَامِعِ لِكُتُبِ الْمُنْطِقِ.⁷

Tarjimasi:

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon asli Faryob (Xuroson) viloyatidan bo'lib, u mantiq ilmi va qadimgi fanlar sohasida yetuk olimlardan hisoblanadi. Uning asarlari orasida "Immlar martabalari" kitobi, Aristotelning "Axloq" kitobidan bir parchaga yozilgan sharh hamda Aristotel asarlaridan ayrim qismlarning izohlari mavjud. Shuningdek, u Aristotelning Kitob al-Qiyas ("Kategoriyalar"), Kitob al-Burhan ("Ikkinchi analitika"), Kitob al-Xitoba ("Ritorika") va Kitob al-Mug'olatin ("Sofistika") kabi mantiqiy asarlarini umumlashtirib sharhlab bergan.

Mazkur parchada Ibn an-Nadim Abu Nasr al-Forobiyni mantiq va falsafa

⁷ Ibn an-Nadim. Kitāb al-Fihrist. / vorbereiten der Veröffentlichung G.Flügel. – Zwei bände. – Leipzig: Verlag von F.C.W.Vogel, 1872. – S. 263.



ilmlarining yirik namoyandasi sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, Aristotel asarlariga yozilgan sharhlar allomaning Sharq falsafasi rivojidadagi o‘rnini ko‘rsatadi. Ushbu ma’lumotlar Forobiyning o‘z davrida katta ilmiy obro‘ga ega bo‘lganini tasdiqlaydi.

“Al-Fihrist”dagi ushbu ma’lumotlar Forobiyning nafaqat faylasuf, balki mantiqshunos olim sifatidagi faoliyatini ham ochib beradi. Ibn an-Nadim allomaning asarlarini sanab o‘tish orqali uning ilm-fanning turli yo‘nalishlarida faoliyat olib borganini ko‘rsatadi. Bu esa Markaziy Osiyo allomalari o‘rta asr musulmon Sharqi ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganini anglatadi.

Mening fikrimcha, Ibn an-Nadim tomonidan Abu Nasr al-Forobiy haqida berilgan ma’lumotlar allomaning ilmiy merosini o‘rganishda nihoyatda muhim manba hisoblanadi. “Al-Fihrist” asarida Forobiyning mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy ilmlar sohasidagi faoliyati haqida qisqa bo‘lsa-da, mazmunli ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, uning Aristotel asarlariga yozgan sharhlari Sharq ilmiy tafakkurining shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi. Forobiy yunon falsafasini musulmon Sharqi ilmiy muhiti bilan uyg‘unlashtirib, yangi ilmiy qarashlarning rivojiga zamin yaratgan.

Shuningdek, Ibn an-Nadimning Forobiy asarlarini alohida sanab o‘tishi allomaning o‘z davrida ham yuksak ilmiy nufuzga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Bu holat Forobiyning nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun islom olami ilm-fani taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Ayniqsa, mantiq ilmini tartibga solish va uni falsafiy tafakkur bilan bog‘lash borasidagi xizmatlari uning “Muallim as-soniy” — “Ikkinchi ustoz” nomini olishiga sabab bo‘lgan.

Bundan tashqari, Forobiyning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning ilm-fan, axloq, siyosat va jamiyat haqidagi qarashlari zamonaviy tadqiqotlarda ham keng o‘rganilmoqda. Menimcha, Ibn an-Nadimning “Al-Fihrist” asari orqali Forobiy ilmiy faoliyati haqida berilgan ma’lumotlar nafaqat tarixiy jihatdan, balki bugungi ilmiy manbashunoslik nuqtai



nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur asar Markaziy Osiyo allomalari ilmiy merosini o‘rganishda eng muhim bio-bibliografik manbalardan biri sifatida qadrlanadi.

Demak, Ibn an-Nadimning Kitob al-Fihrist asari Abu Nasr al-Forobiy hayoti, ilmiy faoliyati va asarlarini o‘rganishda muhim bio-bibliografik manba hisoblanadi. Asarda keltirilgan ma’lumotlar allomaning Sharq falsafasi, mantiq ilmi hamda ilmiy tafakkur taraqqiyotidagi yuksak o‘rnini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Forobiyning Aristotel falsafasiga yozgan sharhlari va mantiq ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari uning o‘z davrida katta ilmiy obro‘ga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Al-Fihrist”dagi ma’lumotlar orqali Forobiyning turli fan sohalarida faoliyat olib borgan qomusiy olim ekanini anglash mumkin. Ibn an-Nadim tomonidan alloma asarlarining nomma-nom keltirilishi bugungi tadqiqotchilar uchun muhim manbashunoslik asosini yaratadi. Bu esa Forobiy ilmiy merosining keyingi davrlarda ham keng o‘rganilishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, mazkur asar orqali o‘rta asr musulmon Sharqidagi ilmiy muhit, ilm-fan markazlari va allomalar o‘rtasidagi ilmiy aloqalar haqida ham muhim tasavvur hosil qilish mumkin. Shu jihatdan qaraganda, “Al-Fihrist” nafaqat bibliografik asar, balki fan tarixini yorituvchi qimmatli tarixiy manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Ibn an-Nadimning bayon uslubi oddiy tarjimai hol yoki bibliografik ro‘yxat bilan cheklanib qolmaydi. Muallif allomalarning ilmiy faoliyatini, ularning qaysi fan sohasida ijod qilganini ham izchil ravishda ko‘rsatishga harakat qiladi. Bu esa “Al-Fihrist”ning ilmiy va manbashunoslik qiymatini yanada oshiradi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo allomalari haqidagi ma’lumotlarning keltirilishi o‘sha davr ilmiy muhitining naqadar rivojlanganini va ilm-fan vakillari o‘rtasida kuchli ilmiy aloqalar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Ibn an-Nadim ayrim olimlarning asarlarini batafsil sanab o‘tishi orqali ularning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini yoritishga intiladi.



Bundan tashqari, asarda allomalarning faqatgina ilmiy faoliyati emas, balki ularning yashagan muhiti, boshqa olimlar bilan aloqalari ham bilvosita aks etadi. Bu holat “Al-Fihrist”ni o‘rta asr musulmon Sharqidagi ilmiy-madaniy hayotni o‘rganishda muhim tarixiy manbaga aylantiradi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo allomalarning Bag‘dod kabi yirik ilm markazlari bilan bog‘liq holda tilga olinishi ularning umumislomiy ilm-fan rivojidadagi o‘rnini yanada yaqqol namoyon etadi.

Ibn an-Nadim ularning asarlarini nomma-nom sanab o‘tib, qaysi fan sohasiga oid ekanini ham ko‘rsatadi. Bu esa bugungi tadqiqotchilar uchun juda muhim manbashunoslik asosini yaratadi⁸. «Al-Fihrist»da Markaziy Osiyo allomalari ko‘pincha umumislomiy ilmiy makon doirasida tasvirlanadi. Bu holat o‘sha davrda ilmiy faoliyat hududiy chegaralar bilan cheklanmaganini, balki yagona ilmiy muhit mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Allomalarning Bag‘dod, Damashq, Basra kabi markazlarda faoliyat yuritganligi ularning ilmiy nufuzi va bilim almashinuvida faol ishtirok etganidan dalolat beradi. Asarning yana bir muhim jihati shundaki, Ibn an-Nadim ko‘plab allomalarning bizgacha yetib kelmagan asarlarini ham tilga oladi. Bu esa «Al-Fihrist»ni yo‘qolgan ilmiy merosni aniqlashda muhim manbaga aylantiradi. Ayrim hollarda asarlarning faqat nomi yoki qisqacha tavsifi berilgan bo‘lsa-da, bu ma’lumotlar orqali o‘rta asrlar fan tarixining ko‘plab noma’lum jihatlarini tiklash mumkin. Ibn an-Nadimning yondashuvi bio-bibliografik an‘ananing muhim xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. U faqatgina tarjimai hol bilan cheklanmay, mualliflarning ilmiy qarashlari, asarlarining mavzusi va ahamiyatini ham yoritishga harakat qiladi. Bu holat «Al-Fihrist»ni oddiy kitoblar ro‘yxati emas, balki fan tarixini yorituvchi tahliliy manba sifatida baholash imkonini beradi⁹.

“Kitob al-Fihrist”da yuqoridagidan tashqari yana markaziy osiyolik bir qancha allmolar to‘g‘risida, xossatan, hadis bo‘limida islom olamida kitobi Qur’oni

⁸ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Al-Fihrist> – internet resurs.

⁹ Абдуҳалимов Б.А. «Байт ал-хикма» ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 264 б. – монографиya.



Karimdan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan buyuk muhaddis olim Imom al-Buxoriy va uning zamondoshi, hadis ilmining yirik vakillaridan biri Imom at-Termiziy haqidagi ma'lumotlar keltirilganligini quyida ko'rishimiz mumkin:

3-bob – Hadis bo'limida:

Ismoil al-Buxoriy (810–869). Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo'lib, u hijriy hisobda 194-yil shavvol oyining 13-kuni (810-yil 20-iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan. Buyuk hadisshunos Imom Buxoriy hayoti davomida 600 ming hadis to'plab, ulardan 7275 hadisni o'zining 4 jildlik «Ishonarli to'plam»iga kiritdi. Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziy al-Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o'zaro munosabatlari ibratli bo'lgan. Umrining oxirlarida al-Buxoriy besh (863–868) yil Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan. Al-Buxoriyning at-Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz bergan. At-Termiziyning yozishicha, u o'z asarlari uchun ko'p ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga al-Buxoriy ham at-Termiziyning bilimni yuqori baholab: “Men sendan ko'rgan foyda sen mendan ko'rgan foydadan ortiqroq”, deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan. At-Termiziy o'z ustozini va safdoshi al-Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiy sadoqatda bo'lgan. An-Nadim o'z asarida yozishicha, at-Termiziy o'z ustozining vafoti tufayli qattiq qayg'uga botib “ko'p yig'laganidan hatto ko'zlari ko'r bo'lib qolib, uzoq yillar ko'zi ojiz holda yashadi”, deb qayd qilgan¹⁰.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824–894). Islom dunyosida mashhur bo'lgan hadischi olim Imom at-Termiziy 26 yoshidan boshlab Samarqand, Buxoro, Xijoz, Iroq, Nishopur shaharlarida mashhur muxaddis olimlar bilan uchrasha boshladi. Uning buyuk hadischi olim bo'lib, etishishida Imom Ismoil al-Buxoriy

¹⁰Ibn an-Nadim. Kitāb al-Fihrist. / vorbereiten der Veröffentlichung G.Flügel. – Zwei bände. – Leipzig: Verlag von F.C.W.Vogel, 1872. – S. 567–568.



ustozligi katta o‘rin tutadi. Umrini hadislar to‘plashga bag‘ishlagan at-Termiziydan katta ilmiy meros, jumladan: “Kitobi al-Jom‘e as-saxix”, “Kitob ul ilm”, “Kitobi at-Tamoyili an-Nabaviy”, “Kitobi az-zuxl”, “Kitobul ismi val xuna” kabi asarlar qolgan¹¹.

Shuningdek, «Al-Fihrist»da Markaziy Osiyo allomalari ilmiy merosining boshqa madaniyatlar bilan aloqadorligi ham ko‘rinadi. Yunon, hind va fors ilmiy an‘analarining arab ilm-faniga ta‘siri haqida berilgan ma‘lumotlar orqali Markaziy Osiyo allomalari ilmiy tafakkurining shakllanish jarayoni yanada ravshanlashadi. Bu esa asarning sivilizatsiyalararo ilmiy aloqalarni o‘rganishdagi ahamiyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn an-Nadimning «Kitob al-Fihrist» asari X–XI asrlarda yaratilgan eng muhim bio-bibliografik manbalardan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo allomalari hayoti va ilmiy merosini o‘rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu asar orqali allomalarning ilmiy faoliyati, asarlari va ilmiy muhitdagi o‘rni haqida tizimli va ishonchli ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin. «Al-Fihrist» bugungi kunda ham fan tarixini, ayniqsa Markaziy Osiyo ilmiy merosini o‘rganishda muhim manbashunoslik tayanchi bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ibn an-Nadim. Kitāb al-Fihrist. / vorbereiten der Veröffentlichung G.Flügel. – Zwei bände. – Leipzig: Verlag von F.C.W.Vogel, 1872. – 725 s.
2. Абдуҳалимов Б.А. «Байт ал-ҳикма» ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 264 б.
3. Tursunov M. Markaziy Osiyo va Bag‘dod ilmiy aloqalari. – Тошкент: Fan, 2017. – 150 b.
4. Rashed R. (Ed.) Encyclopedia of the History of Arabic Science. – London: Routledge, 1996. – 344 p.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Al-Fihrist>

¹¹Yuqoridagi asar, 587–588-betlar.